

## **YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TARAQQIYOT OMILLARI.**

*Usmanov Abdumo‘min Xolmo‘min o‘g‘li*

*O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti.*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.7892709>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yosh avlodni harbiy vatanparvarlik va burchga sadoqat g‘oyalarini shakllantirishda buyuk davlatchiligimiz tarixini chuqur o‘rganish hamda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat asosida tarbiyalash orqali jamiyatda ma‘naviy barqarorlik hamda mamlakat xavfsizligini ta‘minlashning muhim mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalalari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** vatan tuyg‘usi, millatparvarlik, afsonaviy qahramonlar, mardlik, matonat, inson komoloti, ta‘lim-tarbiya, harbiy salohiyat.

Dunyoda g‘oyaviy va siyosiy kurashlar keskinlashayotgan sharoitda yoshlarda vatanparvarlik, xususan, harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha davlat dasturlari va harbiy vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari qabul qilinmoqda. Jahonda mamlakat mudofaasining asosiy ko‘rsatkichi vatanparvarlik hissi yuqori darajada rivojlangan, fidoiy, bilim va tajribasini Vatanga baxshida etuvchi yosh avlodni shakllantirish hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, mazkur fazilatlarni shakllantirish mexanizmlarini, rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishda milliy davlatchiligimiz tarixini yana chuqur o‘rganish va yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga muntazam tadbiiq etishni taqozo etadi.

Ma‘lumki, “Vatan” so‘zi aslida, arabchadan olingan bo‘lib, ona yurt tug‘ilgan makon ma‘nolarini bildiradi. “Vatan” tushunchasi keng va tor manoda qo‘llaniladi. Tor ma‘noda – kishi to‘g‘ilib o‘sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilgan bo‘lsa, bir xalq vakillari jamuljam yashayotgan, ularning ajdodlari azal azaldan istiqomat qilgan hudud ifodalanganida esa - keng ma‘noga ega bo‘ladi. Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma‘naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qahramonlari o‘zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azal-azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, yer yuzida qaysi mamlakat o'z davlat mustaqilligi, chegaralari daxlsizligi, halqining tinch va osoyishta hayotini himoya qilib, taraqqiyot borrasidagi yuksak maqsad va muddaolariga erishmoqchi bo'lsa, avvalo, milliy armiyasini mustahkamlashga, uning hal qiluvchi kuchi bo'lgan jangovar tarkib, ya'ni, askar va ofiserlar tarbiyasiga birinchi darajali ahamiyat beradi. Agar jismoniy va jangovar tayyorgalik orqali harbiy qizmatchilar jismonan toblanib, kuch-quvvatga to'lsa, ma'naviy ma'rifiy tarbiya orqali ularning qalbi, ruhi irodasi mustahkamlanadi. Biz qahramon ota-bobolarimiz, jasur harbiylarimiz haqida so'z yuritganda, “mard”, “botir”, “matonitli”, “qo'rqmas”, “sheryurak”, “pahlavon” degan so'zlarni alohida tilga olamiz. Har bir insonda ana shunday oliyjanob fazilatlarni shakillantirib, yosh yigitlarimizni Vatan uchun qalqon, xaqiqiy mardumaydon bo'lishga kerak bo'lganda hatto o'z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch bu-avvalo ma'naviy –ma'rifiy tarbiyadir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tabiri bilan aytganda, “Armiyamiz unib, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va ona yurtga muxabbat, milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat, shonli tariximizni chuqur bilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga faol kirishganini alohida qayt etish lozim”.<sup>1</sup>

Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zaxiriddin Muxammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo'shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g'alaba qozongani haqida misollar ko'p. Bu albatta ularning harbiy salohiyati jang maydonida qo'llagan taktika va strategiyalari, qolaversa sarkardalarning o'z askarlari qalbiga chinakkakm vatanparvarlikni, jangovar ruhni singdira olgani biz uchun bugun ibratlidir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning “Men istardimiki, har bir o'zbek askari va ofiseri qalbida Alpomish, Shiroq, Farhod, Jaloliddin Mangubendi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qaxramonlarimiz ruhi tug'yon urishi kerak” degan so'zlari bejizga aytilmagan.<sup>2</sup>

Ma'naviyatni shakillantirishga bevosita tasir qiladigan yana bir muhim omil-bu ta'lim tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu-ma'rifat. Ta'lim va tarbiyani inson komoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakillantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosida ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M.: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T-2020. 400-b.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M.: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T-2020. 132-b.

kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Anashu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, komil inson etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitusion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risidagi konsepsiyasi” ni takidlab o'tish joiz, yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish, ona-vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar Konsepsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini bosqichlarga bo'ladigan bo'lsak quyidagilarni ko'rish mumkin: Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'lishi, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirish konsepsiyaning birinchi bosqichida o'z aksini topadi.

Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoiylilik va adolatparvarlik kabi fazilatlarni yosh avlodga singdirish, Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 5-iyuldagi famoniga muvofiq barcha harbiy akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi.

Tabiiyki, buning natijasida buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temurning harbiy-ma'naviy me'rosini o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotlar hajmi oshganligini, talaba-yoshlar ishtirokida "Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman", "Yurt taqdiri – mening taqdirim" mavzularida insholar tanlovi tashkil etilganligini, sog'lomlashtirish oromgohlarida "Temurbekning izdoshlari", "O'zbekiston farzandlari botir bo'lur" kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etilayotganligini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risidagi konsepsiyasi"ning ikkinchi bosqichiga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Konsepsiyaning uchinchi bosqichida esa yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Ya'ni, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borilib, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib borish, mudofaa ishlari bo'limlari va harbiy qismlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazmun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish yaxshi natijalar berib kelmoqda. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son Qaroriga asosan Ichki ishlar Vazirligining 14 ta Akademik litseylari tashkil etildi.

Bundan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni ichki ishlar organlariga zarur bo'lgan yuksak vatanparvarlik va ma'naviy axloqiy fazilatlariga, dastlabki kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega aqlan va jismonan yetuk etib tarbiyalashga, Ichki ishlar vazirligining oliy ta'lim muassasalariga kirishlari uchun maqsadli, chuqur tayyorlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qaroriga qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash to'g'risidagi konsepsiyasi"ning so'ngi to'rtinchi bosqichida yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, intellektual salohiyatini oshirishga erishishni nazarda tutadi.

Muhtaram Yurtboshimiz "25-oktabr – O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlari kuni" munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida belgilab bergan beshta asosiy vazifaning birinchisi ham ichki ishlar organlari uchun intellektual va professional bilim darajasi, ma'naviy-axloqiy saviyasi yuqori bo'lgan kadrlar tayyorlash bo'yicha sifat jihatidan yangi tizimni joriy etishga qaratilgan. Ichki ishlar organlarida shu maqsadda amalga oshirilgan ulkan islohotlar natijasida

bugun biz tizimga kadrlarni maktab yoshidan tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu esa o'z navbatida kelajakda ichki ishlar organlari uchun vatanparvar, fidoyi, intellektual salohiyatga ega professional kadrlarni tayyorlashga zamin yaratdi.<sup>3</sup>

Vatanparvarlik o'z-o'zidan shakillanmaydi, u o'zlikni anglash, Vatanni, xalqni sevishdan boshlanadi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining "Farzandlarimizni o'zimiz asramasak, o'zimiz avaylamasak, o'zimiz tarbiyalamasak, birov chetdan kelib bu ishni biz uchun bajarib bermaydi. Shu sababli xar bir ofiser tasirchan shakl va usullardan foydalanib adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarishni harbiy xizmat kabi o'zining muxim burchi deb bilishi kerak" degan so'zlarini takidlash joiz.<sup>4</sup> Ma'naviyatning gultoji – vatanparvarlik. Shu bois ham xozirgi zamon mutaxassisiga qo'yiladigan ikkinchi talab vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik o'z o'zidan shakillanmaydi, u o'zlikni anglash, vatanni, xalqni sevishdan boshlanadi.

Inson o'zini xurmat qilishga o'rganmasdan, xalqqa, vatanga muxabbat qo'ymasdan, vatanparvar bo'lolmaydi.<sup>5</sup> Vatanparvar o'z xalqi uchun xech ikkilanmasdan jon berishga tayyor turishdek ruxiy xolatdir (bunday ruhiy holatni ota onaning farzandlariga bo'lgan munosabatida ko'rish mumkin). Vatanparvarlik har bir insondan xalq va davlat manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'unlashtirib borishni talab etadi. Vatanparvarlik xalq oldidagi ma'suliyat demakdir. Inson bolasi dunyoga o'zi-kelib, o'z-o'zidan tarbiyalanib, biron kasb egasi bo'la olmaydi. Hozirgi kunda respublikamiz ichki ishlar organlari tizimi xodimlarini xalqiga, vataniga va tug'ilib usgan yurtiga sadoqatli etib tarbiyalash, vataniga bo'lgan muxabbatini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy ta'lim muassalarida tahsil olayotgan tinglovchi va kursantlarga ona Vatanni his qilish hamda uni sevishga chorlovchi zamonaviy o'quv dasturlari va mustaqil mashg'ulotlarni yanada takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya berishni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A.: "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent-2012.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent-1997.
3. Mirziyoyev Sh.M.: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent-2020.  
Mirziyoyev Sh.M.: Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent-2021.
4. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh. M.: Yangi O'zbekiston strategiyasi. T. "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464-b.

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh.M.: Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T-2020. 141-b.

<sup>5</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston" 1997.